O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv va tarbiyaviy ishlar
bo‘yicha prorektor
_____ S.Normamatov
“___” _____ 2021-yil

AMALIY FILOLOGIYA FAKULTETI

UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARI
(O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi,
Hozirgi o‘zbek adabiy tili, O‘zbek adabiyoti)
bo‘yicha

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI DASTURI

Ta`lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta`lim yo`nalishi:	5112400- O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili

5112400- O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishidagi IV kurs bakalavr talabalari uchun

Toshkent – 2021

Annotatsiya

Ushbu dastur 2021/2022-o‘quv yili O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili bakalavr ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun 2018-2019-o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv reja (ishchi o‘quv rejalari) asosida o‘qitilgan O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, O‘zbek adabiyoti fanlarining dasturlari (fan dasturi va ishchi o‘quv dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

F.I.Sh.	Imzo	Lavozimi
G.Asilova		ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari doktori
M.Saparniyazova		ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
N. Musulmonova		ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
D.Hidoyatova		ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (PhD)
M.Shodmonova		ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya kafedrasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari doktori (PhD)
O.To‘raqulova		ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari doktori (PhD)

Amaliy filologiya fakulteti dekani _____ **S.Muhamedova**

Amaliy filologiya kafedrasi mudiri _____ **B. Mengliyev**

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan.
(2021-yil 30 - 09 dagi 2 -sonli bayonnoma)

1. O‘quv fanining o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

“Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”[1]. Shu ma’noda o‘zbek tilshunosligining zamonaviy fan darajasida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, hayotga tatbiqini takomillashtirish, amaliy asoslarini mustahkamlash milliy manfaatlarimizni, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va taraqqiy ettirishda katta ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi” fani ixtisoslik fanlari o‘quv blokiga kiritilgan bo‘lib, talabalarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash, ularning o‘zbek tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyotining asosiy masalalarini o‘zlashtirishlarini ta’minlash, ularda metodik kompetentlikni – o‘zbek tilini zamonaviy talablar asosida o‘qitish, muammoli pedagogik vaziyatlarni hal qilish, ilmiy faoliyat olib borish, o‘z pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish layoqatini shakllantirishga qaratilgan.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani o‘quv dasturi oliy o‘quv yurtlari DTS hamda Prezidentimizning milliy qadriyatlarimiz, shu jumladan, davlat tili maqomidagi ona tilimizga oid farmonlarida ko‘rsatilgan talablar asosida o‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mo‘ljallab tuzildi. Unda hozirgi o‘zbek tilining sistem-struktur xususiyatlari, leksik-frazeologik tarkibi, morfemik, morfologik xususiyatlari, sintaktik qurilishi, tadrijiy rivoji bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlar tizimi tavsiya etildi; fan sohasi bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida qo‘lga kiritilgan eng so‘nggi yutuqlarning ta’lim bosqichlari darsliklarida berilishi masalasini qiyosan o‘rganishga doir ko‘rsatmalar berildi.

“O‘zbek adabiyoti” fani ixtisoslik fanlari o‘quv blokiga kiritilgan bo‘lib, talabalarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq boy adabiy va ma’naviy meros bilan tanishtirish, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lom e’tiqod va yuksak axloq sohibi bo‘lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash vazifalarini bajaradi.

1.1.Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining maqsadi va vazifalari

“O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi” fanining maqsadi:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqyeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // www.lex.uz

- talabalarni o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha ta’limiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash;

- talabalarning o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi sohasidagi tadqiqot, ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish; talabalarni o‘zbek tilini uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish metodikasining asosiy zamonaviy g‘oyalari va yo‘nalishlari bilan tanishtirish.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining maqsadi:

a) talabalarni hozirgi o‘zbek tilining shakllanishi, tarixiy ildizlari, dialektal asosi, taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan tanishtirish: hozirgi o‘zbek adabiy tilining “Fonetika va fonologiya”, “Leksikologiya”, “Frazeologiya”, “Morfemika va so‘z yasalishi”, “Morfologiya”, “Sintaksis” bo‘limlariga oid nazariy, amaliy bilimlar bilan qurollantirish, shu jumladan, til birliklarining struktur-semantik, funksional, voqelanish xususiyatlari, amaliyoti, lingvopragmatik jarayonlar tavsifi, nutqning og‘zaki va yozma shakllari, amaliy ko‘rinishlari haqida ma’lumot berish; talabalarda lingvistik bilim malakasi, tildan foydalanish layoqatini shakllantirish;

b) hozirgi o‘zbek tilining nazariy va amaliy masalalari yuzasidan bilim berish mobaynida talabalarni mazkur bilimlarning ta’lim bosqichlari darsliklarida qamrab olinishi darajasi bilan tanishtirish.

“O‘zbek adabiyoti” fanining maqsadi:

- adabiyot tushunchasi, ijodkorlarning hayot yo‘li va ijodiy faoliyati, ularning millat va jahon madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, o‘zbek davlatchiligi va ma’naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

- o‘zbek adiblari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi, ular ijodini o‘rganish, to‘g‘ri tahlil va talqin qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- badiiy adabiyot bilan bog‘liq tushuncha va tamoyillar, asarlarning mazmun-mohiyati, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, badiiy asarlar tili, o‘ziga xos jihatlari, ushbu asarlarning o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq masalalarni bilish malakalarga ega bo‘lishi kerak.

“O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi” fanining vazifalari:

- talabalarda o‘zbek tili ta’limi sohasidagi metodik masalalarni hal qilishga tizimli yondashuvni tarbiyalash;

- talabalarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida to‘plangan an’anaviy va innovatsion tajribadan foydalanishga or‘gatish;

- sohadagi dolzarb yangiliklarni tezkor qabul qilish malakalarini shakllantirish;

- talabalarda o‘quv jarayonini rejalashtirish, dars mashg‘ulotlarini tahlil qilish, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun maqbul ta’lim vositalarini tanlash, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning faoliyatini nazorat qilish, ularning bilim va ko‘nikmalarini baholash malakalarini shakllantirish.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining vazifalari:

– hozirgi o‘zbek tilining shakllanishi, tarixiy ildizlari, dialektal asosi, adabiy til taraqqiyoti, boyishinini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar haqida talabalarga ma’lumot berish;

– tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, frazeologik, morfemik, derivatsion, grammatik sath birliklarining xususiyatlarini qiyosan o‘rganish, bu sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash;

– hozirgi o‘zbek adabiy tili nazariy-amaliy masalalarining ta’lim bosqichlari darsliklarida qamrab olinishi, o‘qilishi, o‘rgatilishi darajasini tahlil qilish;

– talabalarda hozirgi o‘zbek adabiy tilining sistem-struktur, funksional xususiyatlarini tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirish.

“O‘zbek adabiyoti” fanining vazifalari:

5112400- O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishidagi IV kurs bakalavr talabalariga “O‘zbek adabiyoti” fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

1.2.Fanni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar

“O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha talaba:

– o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini turli tipdagi ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari doirasida qo‘llash; til o‘rganishning zamonaviy strategiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash; texnologik faoliyat (lingvistik va nutq materialini tanlash hamda tashkillashtirish, mashq va topshiriqlar, dialoglar, matn, diktantlarni tuzish); ilmiy-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash va tadqiqot o‘tkazish; dars maqsadlarini rejalashtirish; o‘quv vazifalarini tanlash va loyihalash; ta’lim natijalari sifatini tashhislash va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– o‘zbek tili ta’limi uchun til o‘rganuvchilarning ehtiyojiga qarab o‘quv-metodik ta’minot tayyorlash; o‘zbek tilini o‘qitishning metod, usul, texnologiyalarini mustaqil tarzda ishlab chiqish va qo‘llash; o‘zbek tilini o‘qitish metodika va texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish; ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarni tashhislash va ularni bartaraf etish usullarini qo‘llash; nazorat materiallarini loyihalash va muvofiqlashtirish; o‘z darslarini tahlil qilish va metodik

jihatdan baholash: o'zbek tilidan turli shakldagi o'quv mashg'ulotlari hamda nutq o'stirishga qaratilgan darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha talaba:

– hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi, lug'at tarkibining o'zgarishi, boyish,buning sabablari, omillari va manbalari, milliy til tarkibiga kirgan guruhlar (sheva, atama, eskirgan va yangi so'zlar, jargon va argolar, uyadosh va olinma so'zlar),so'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati, leksemaning ifoda jihati va mazmun jihati (semantik tarkibi-semalari); leksemaning uzual va okkazional ma'nolari; so'zning ma'no ko'chish usullari, bir ma'noli va ko'pma'noli so'zlar, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari; faol va nofaol, qo'llanish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan, zamonaviy, eski, eskirgan,o'z va o'zlashgan qatlam; hissiy-ta'siriy bo'yoqli- bo'yoqsiz, uslubiy xoslangan xoslanmagan so'zlar; o'zbek tilida so'z yasalish usullari va vositalari, so'z turkumlarida so'z yasalishi, sinxron va diaxron so'z yasalishi; so'zning morfemik tarkibi, o'zak va affiksal morfema, so'z yasovchi va shakl yasovchi morfemalar, ularning turlari, so'zning sinxron va diaxron morfem tarkibi; tilning grammatik qurilishi, morfologiya va sintaksis, so'z turkumlari, so'z shaskllar, ularning turlari;mustaqil va yordamchi so'zlar, modal, undov va taqlid so'zlar, ularning leksik-semantik, funksional xususiyatlari,tuzilishi, ma'no vazifasiga ko'ra turlari; sintaktik munosabat va sintaktik aloqa, ularning turlari, so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, uyushgan gap,qo'shma gap sintaksisi haqida izchil va aniq, kengqamrovli ilmiy-amaliy ma'lumotga ega bo'lishi;

– grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya hodisalarini barcha grammatik morfemalar, turkumlar, sintaktik birliklar asosida farqlay olishi, ular haqida nazariy **bilimlarga ega bo'lishi kerak.**

Leksik-semantik tahlil, leksemalar va frazemalarning struktur, semantik-funksional tahlili va tasnifi, morfemik tahlil, ularning turlari, so'z yasovchi morfemalar, so'z yasalish strukturasi, usullari, so'z turkumlarida so'z yasalishi, so'zning morfologik shakllari, kategorial shakllar, morfologik va sintaktik birliklarni tasnif va tavsiflash **ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim.**

Leksikologiya-leksemika, frazeologiya-frazemika, morfemika, so'z yasalishi va morfologiya, sintaksis bo'limlari bo'yicha badiiy adabiyotlardan materiallar to'plash va ularni tahlil qilishni o'rganish, faktik materiallar asosida ma'lum nazariy xulosalar chiqara bilish, leksik-frazeologik, morfemik,morfologik, sintaktik tahlil **malakasiga ega bo'lishlari talab qilinadi.**

"O'zbek adabiyoti" fani bo'yicha talaba:

– mumtoz va zamonaviy adabiyot tushunchasi, mumtoz poetika, mumtoz ijodkorlarning hayot yo'li va ijodiy faoliyati, ularning millat va jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni haqda bilimga ega bo'lishi;

– o'zbek adabiyoti bilan bog'liq tushuncha va tamoyillar, mumtoz poetika asoslari: balog'at ilmi, ilmlar uchligi, mumtoz asarlarning mazmun-mohiyati, majoz tariqida yozilgan she'rlarda qo'llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, mumtoz asarlar tili, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarning o'ziga xos jihatlari, ma'no qatlamlari, ushbu asarlarning o'zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq ko'nikmaga ega bo'ladi;

– talaba o'zbek adabiyoti namoyandalarining asarlarini o'rganish orqali ularni to'g'ri tahlil va talqin qila olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

1.3. Fanlarning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari quyi ta'lim bosqichlari, xususan, umumta'lim maktablari, litsey va texnikumlarda o'tiladigan "Ona tili", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanlari bilan, oliy ta'lim bosqichida o'qitiladigan "O'zbekiston tarixi", "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati", "Falsafa", "Yozma nutq me'yorlari", "Tilshunoslik nazariyasi", "Tilshunoslik asoslari", "O'zbek tili dialektologiyasi", "Talaffuz va imlo asoslari", "O'zbek tili tarixi", "Leksikografiya asoslari" fanlari bilan bog'lab o'rganiladi.

Fanlarning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy asoslari tilning amaliy-funksional qo'llanishida yuzaga chiqadigan xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Til egalarini til birliklaridan nutqiy faoliyat jarayonida o'rinli, maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, nutqning samaradorligiga erishishga o'rgatishda hamda ularning savodxonligi darajasini o'stirishda ham fanning ahamiyati katta.

Fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

– o‘qitishning interaktiv usulini qo‘llash uchun turli xil metodlarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash;

– xorijiy universitetlar professorlari tomonidan o‘qilgan ayrim ma’ruzalarni texnika vositalari orqali talabalarga namoyish etish;

– test savollarini tuzish;

– masofaviy o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish va boshqalar.

“O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISH METODIKASI” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi SAVOLLARI

(2021-2022 o‘quv yili)

1. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari.
2. O‘zbek tili ta’limidagi turli yondashuvlar.
3. O‘quv-uslubiy ta’minot va uning o‘zbek tili ta’limidagi o‘rni.
4. Lingvodidaktika o‘zbek tili ta’limining nazariy asosi sifatida.
5. Didaktika, lingvodidaktika va metodikaning o‘zaro bog‘liqligi.
6. Monolingvizm, bilingvizm va multilingvizm.
7. Tillararo interferensiya va transferensiya tushunchalari.
8. Boshlang‘ich sinflarda ikkinchi til ta’limida qo‘llanadigan asosiy metodikalar.
9. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda fonetik va leksik ko‘nikmalarni shakllantirish.
10. O‘zbek tili ta’limida grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.
11. Nutqiy va lingvistik kompetensiyalar, ularni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari.
12. O‘zbek tili ta’limida adabiy o‘qish materiallaridan foydalanish tamoyillari.
13. 10-11-sinf o‘quvchilarida nutq uslublari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.
14. O‘zbek tili ta’limida qo‘llanadigan axborot-kommunikatsiya vositalari.
15. O‘zbek tili ta’limida Internet resurslaridan foydalanish metodlari.
16. Ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash yordamida til ta’limini intensivlashtirish.
17. Muammoli topshiriqlar va ularning til ta’limidagi o‘rni.
18. Tinglab tushunishning asosiy mexanizmlari va ularni rivojlantirish metodlari.

19. Tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar turlari.
20. O‘zbek tili ta’limida audiomatnlar bilan ishlash tizimi.
21. Monologik nutqni o‘stirish metodlari.
22. Dialogik nutqni o‘stirish metodlari.
23. Matnga tayanib va matnga tayanmasdan gapirishni o‘rgatish usullari.
24. O‘zbek tili ta’limida nutqiy vaziyatni yaratish usullari.
25. O‘zbek tili ta’limida o‘qib tushunishga o‘rgatish bosqichlari.
26. O‘qib tushunish malakalarining shakllari va turlari.
27. O‘qib tushunishga o‘rgatishda matn bilan ishlash bosqichlari.
28. O‘zbek tili ta’limida qo‘llanadigan autentik matnlarning xususiyatlari.
29. Yozma muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning maqsadi va bosqichlari.
30. Til ta’limida grafika, imlo, yozuvning turli shakllari.
31. Ta’limning turli bosqichlarida yozishga o‘rgatish xususiyatlari.
32. O‘zbek tili ta’limida motivatsiyani oshirish usullari.
33. O‘zbek tilida fonetik ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari.
34. O‘zbek tilida talaffuz ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari.
35. O‘zbek tilida leksik ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari.
36. O‘zbek tilida grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari.
37. O‘zbek tili ta’limida audio materiallardan foydalanish.
38. O‘zbek tili ta’limida video materiallardan foydalanish.
39. Metodika, metod va texnologiyaning farqlanishi.
40. O‘zbek tili ta’limida nutq o‘stirish texnologiyalari.
41. O‘zbek tilini o‘qitishning o‘yinli metodlari.
42. O‘zbek tilini o‘qitishning loyihali metodlari.
43. O‘zbek tili ta’limida munozara metodi.
44. O‘zbek tili ta’limida tanqidiy fikrlash texnologiyalari.
45. O‘zbek tili ta’limida baholash usullari.
46. O‘zbek tilini o‘qitishning innovatsion metodlari.
47. Ona tili va o‘zbek tilini qiyoslab o‘qitish metodlari.
48. O‘zbek tilini intensiv o‘qitish usullari.
49. O‘zbek tilini o‘qitishda lingvomamlakatshunoslik tamoyillaridan foydalanish.
50. O‘zbek tilidan zamonaviy dars turlari va shakllari.

“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi SAVOLLARI

(2021-2022 o‘quv yili)

1. Grammatika atamasiga ta‘rif bering
2. Grammatikaning tarkibiy qismlari. O‘rganish obyekti nimalardan iborat?
3. Morfologiya va sintaksis munosabati.
4. Morfemika va uning birligi haqida umumiy ma‘lumot.
5. Morfemalarning funktsional-semantik tasnifi.
6. Morfemalarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari.
7. So‘z yasash derivatsion qoliplari.
8. Nutqiy yasama so‘zlarning lisoniy sathga ko‘tarilishi.
9. Grammatik ma’no haqida umumiy tushuncha.
10. GM turlari. UGM, OGM, XGM haqida.
11. GM tarkibi. Kategorial, yondosh va hamroh ma’no.
12. Grammatik ma’no ifodalash usullari.
13. Grammatik shakllarning tuzilishiga ko‘ra turlari.
14. So‘z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari haqida.
15. So‘zlarning semantik tasnifi.
16. So‘zlarning morfologik tasnifi.
17. Leksemalarning sintaktik tasnifi.
18. Fe’l va uning UGMsi.
19. Fe’lning asosiy LMGlari.
20. Fe’llarning yasalishi.
21. Fe’l tasniflovchi kategoriyalari haqida umumiy ma’lumot.
22. Nisbat kategoriyasi.
23. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi.
24. Harakat tarzi kategoriyasi.
25. O‘zgalovchi kategoriyasi.
26. Sintaktik kategoriyalarning fe’llarda voqelanishi.
27. Ot va uning UGMsi.
28. Otning UGM parchalanishiga ko‘ra turlari.
29. Atoqli va turdosh ot.
30. Muayyan va mavhum ot.
31. Yakka va jamlovchi ot.
32. Otning morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari.
33. Otning xususiy lugaviy shakllari.
34. Otlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishi.
35. Sifat va uning UGMsi.
36. Daraja kategoriyasi.
37. Sifat LMGlari.

38. Sifatlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishi.
39. Son va uning UGMsi.
40. Sonning grammatik xususiyatlari.
41. Sonning LMT va LMGlari hamda ularga xos lug‘aviy shakl hosil qiluvchi vositalar.
42. Sintaktik kategoriyalarning son turkumida voqelanishi.
43. Ravish va uning UGMsi.
44. Ravish o‘zgarmas so‘zlar turkumi sifatida.
45. Ravish LMGlari.
46. Taqlid va uning UGMsi.
47. Taqlidlarning LMTlari.
48. Olmosh mustaqil so‘z turkumi sifatida.
49. Olmoshlarning ifoda etadigan ishoraviy ma‘nosiga ko‘ra guruhlari.
50. So‘zlarning sintaktik shakllari haqida ma‘lumot
51. Kesimlik kategoriyasi.
52. Egalik kategoriyasi.
53. Kelishik kategoriyasi.
54. Fe‘llarda kesimlik kategoriyasi.
55. Ot kesimlik kategoriyasi. Bog‘lama.
56. Sifatlarda kesimlik kategoriyasi. Bog‘lama.
57. Sonlarda kesimlik kategoriyasi. Bog‘lama
58. Leksemalarning ma’noviy tasnifidagi “ma’noviy nomustaqillik” belgisi tushunchasi.
59. Yordamchi so‘zlarning “oraliq uchinchi” tabiatiga egaligi.
60. Yordamchi so‘zlarning shakliy xususiyatlariga ko‘ra turlari.
61. So‘z-gaplar to‘plamini ajratish tamoyillari.
62. So‘z–gaplar tasnifi.
63. So‘z-gaplarning sintaktik xususiyatlari.
64. Sintaksis va uning o’rganish manbai.
65. Gap haqida umumiy ma’lumot.
66. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi.
67. Gapning grammatik asos miqdori (tuzilishi)ga ko‘ra turi.
68. Gap bo‘lagi haqida umumiy ma’lumot.
69. Bosh bo‘lak.
70. Kesimning ifodalanishi.
71. Egali va egasiz gap.
72. Ikkinchi darajali bo‘lak haqida.
73. To‘ldiruvchi haqida ma’lumot
74. Aniqlovchi haqida ma’lumot.

75.Hol haqida ma'lumot

76.Qo'shma gap va uning turlari.

77.Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap.

78.Ergash gapli qo'shma gap haqida

79.Ergash gapning turini aniqlashga doir.

80. Murakkab qo'shma gap.

"O'ZBEK ADABIYOTI"

fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi

SAVOLLARI

(2021-2022 o'quv yili)

1. Taxallusi "foyda, najot, tinch, osoyishta, baxtli" kabi ma'nolarni anglatuvchi adib kim, uning qalamiga mansub asarlarni ayting.

2. Qaysi asarning bosh qahramoni :" ...odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qiladurlar..."-, degan so'zlarni aytgan?

3. Qaysi adibning "Vatan"nomli she'rida :

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,

Har kim sening qadring bilmas-aqli pastdur..." -degan satrlarga duch kelamiz?

4. Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida nimani "...shunday bir xazinadurki, naqdinasi kundan kun ortar",-deya ta'riflaydi?

5. "Abulfayzxon" tragediyasida "Podshohlik-qon bilan sug'oriladigan bir og'ochdir",-degan so'zlar kimga tegishli?

6. U maktab o'quvchilari uchun "Adabiyot qoidalari" darsligini,tilshunos sifatida "Sarf","Nahv" kitoblarini yozdi. Bu yerda ta'riflanayotgan adib tomonidan qo'llangan taxallusni toping

7. "Cho'lpon xalq hayotining badiiy tahlilini ham, ijtimoiy hayot haqidagi o'zining mulohazalarini ham, biron o'rinda yalang'och aytishga urinmaydi..."Kecha va Kunduz" romani haqidagi ushbu fikrlar kimga tegishli?

8. "Kecha va Kunduz"romanida kim o'z uyining "qabristonlar qadar jim-jit,xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli kabi tund va xo'mraygan" bo'lishini istaydi?

9. "Kecha va Kuduz"romanida Razzoq So'fi Qurvonbibini qanday atar edi?

10. Cho'lponning "Go'zal"she'rida qaysi badiiy san'atdan unumli foydalanilgan?

11. " Toshpo'lat tajang","Kalvak Mahzum" taxalluslarini qo'llagan adibni toping

12. "Mehrobdan chayon"asarida Anvarning ismini kim qo'yadi?

13. Anvarning yoshlikdagi do'sti Nasim qaysi kasallik bilan vafot etadi?

14. Anvar kimga qarata:"Siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman..." degan so'zlarni aytadi?

15. "O'tkan kunlar" romanida Qodiriy bir o'rinda bir yo'la uch ayolni tanishtiradi, ular kimlar?

16. "O'tkan kunlar"" romanida Otabek bilan hamsuhbat bo'lgan usta Alim kim bilan boshidan kechirganlarini g'oyat ta'sirli tarzda bayon qilib beradi?

17. "Mehrobdan chayon"romanidan: ".....aytgandek, dunyoda hayotidan qo'l yuvguvchidek tili uzun kishi bo'lmas" nuqtalar o'rnida qanday jumlalar qo'llanilgan edi?

18. " U she'riyatimizga shamolday kirib keldi. balki bo'ronday!...Uni o'zimizda "o'zbekning Lermontovi "deb yozishdi. Bu yerda qaysi ijodkor ta'riflanmoqda?

19. Usmon Nosirning qaysi asarida quyidagi satrlarga duch kelamiz?

"O'lim yaxshi, odam agar shunday xor bo'lsa

Bir parcha non nima o'zi! Shuncha zor bo'lsa!"

20. Usmon Nosir: "Sen yuragimning chashma suvisan,

Sen ko'zlarimning gavhar nurlari..." deya nimani ta'riflaydi?

21. "Vaqtga haykal qo'ygan adib"ning qalamiga mansub bo'lgan asarlar haqida gapiring.

22. G'afur G'ulomning "Shum bola" asari yana qanday nom bilan atalgan?

23. G'afur G'ulomning qaysi asarida "...tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig" degan ibora keltiriladi?

24. O'zining mashhur she'rida "Quyoshga bir savat oq gul tutgan" adib kim?

25. Yormat, Salimboyvachcha, Abdushukur, Nuri kabi obrazlar Oybekning qaysi asari qahramonlari hisoblanadi?

26. Hamid Olimjonning qaysi she'rida lirik qahramon "Baxtim bormi?"- deya savol beradi va bunga javoban yellar,qushlar,kurtaklar "Baxting bor!",- deb xitob qiladi?

27. Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida Oygulning yurti qanday nomlanar edi?

28. Hamid olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida Baxtiyor ta'riflanganda kimga o'xshatiladi?

29. Abdulla Qahhorning qaysi asarida "begim deguncha belim sinadi","tekinga mushuk oftobga chiqmaydi","Quruq qoshiq og'iz yirtadi" kabi maqollar qo'llangan?

30. Abdulla Qahhorning "Bemor"hikoyasida epigraf qilib olingan maqolni ayting.

31. Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida Unsin Olimbek Dodxoning nechanchi xotini edi, va bu dargohga tushganiga necha oy bo'lgan edi?

32. Abdulla Qahhorning komediyalari haqida gapiring.

33. Qaysi adib shoira Zulfiyani "Tong kuychisi" deya ta'riflagan?

34. Zulfiya qalamiga doir poemalar(she'riy dostonlar) haqida gapiring.

35. Said Ahmadning qaysi asarini Abdulla Qahhor "...Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi..." deya ta'riflagan?

36. "Ufq"romanida kimlarning o'zaro munosabatiga nisbatan "Tug'ishgandan tutingan afzal" maqolini qo'llasa bo'ladi?

37. Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasida "It" sifatida qaysi obraz nazarda tutilgan?

38. Erkin Vohidov qalamiga mansub dostonlari haqida gapiring.

39. Erkin Vohidov "Nido" dostoning so'nggida kimga murojaat qiladi?

40. Erkin Vohidov qaysi jurnalning dastlabki bosh muharriri hisoblanadi?

41. Erkin Vohidovning "Qaro qoshing,Qalam qoshing,qiyiq qayrilma qoshing qiz",-deb boshlanuvchi to'rtligida qaysi san'at qo'llanilgan?

42. Abdulla Oripovning birinchi she'ri va birinchi she'riy to'plami haqida gapiring.

43. Abdulla Oripov "O`zbekiston" qasidasida "Besh asrkim nazmiy saroyni, titratadi zanjirband bir sher" deganda kimni nazarda tutadi?

44. Abdulla Oripovning "Sohibqiron"dramasida Amir Temur tomonidan davlatni ushlab turuvchi tayanchlar sifatida nimalar keltiriladi?

45. " Urushning so`nggi qurboni" asarida "so'nggi qurboni"kim edi?

46. "Urushning so`nggi qurboni" hikoyasida Umri xolaning sil kasaliga uchragan o`g'lining dardiga nima davo edi?

47. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari kim tomonidan "Onalar haqidagi doston",-deya ta'riflangan?

46. "Maymun yetaklagan odam" asarining muallifi kim?

51. Erkin A'zamovning roman janridagi asari haqida gapiring.

52. Tarse' haqida ma`lumot bering.

53. Tajnis qaysi janrda nisbatan keng qo`llaniladi?

54. O'z dunyom ichida bog`larni yaratdim. So'lib bitdilar. Tafakkur kuchidan tog'larni yaratdim. Nurab ketdilar. Bog`larim o'rnida xazonlar, supurdim, Barg, xazon. Tog'larim o'rnida tepalar, jim turdim. Dilda qon.

Halima Xudoyberdiyevaning ushbu she'rida qanday she'riy san'atlar mavjud?

55. Xoja Imganakiy shivirlarini, Jahongir ruhidek o'tli shitobni... Osmon xaritasin bag'riga bosib, Koinot kitobin ochgan Kitobni!

Zebo Mirzoning ushbu she'rida qanday she'riy san'atlardan foydalanilgan?

56. Yolg'izlikning ma'yus qa'rida Atalgandi u Sizga axir. O'sha Turna Ayol bag'rida Ochilardi dunyo kutgan sir!

Zebo Mirzoning ushbu she'rida qanday she'riy san'atlardan foydalanilgan?

57. Kechalari Oysupasida Nurlar ichib yulduzlar bilan. Qanotingiz o'sa boshlaydi Suhbatlashib kunduzlar bilan...

Zebo Mirzoning ushbu she'rida qanday she'riy san'atlardan foydalanilgan?

58. Har bir bandi sakkiz misradan iborat bo'lgan she'r nima deb ataladi?

59. Quyidagi parchada she'riy san'atlardan qaysi biri qo'llanilgan?

Bu labi jonbaxshu bit huxni malohat sendadur,

Yo seni Yusuf desalar. yo Masixo. yo Tabi.

60. Adabiyotshunoslik ilmida romanlarning mavzu yo'nalishi haqida ma`lumot bering.

61. ...-misralarda qofiyadan keyin takrorlanib keladigan bir xildagi so`zlar? Tushirib qoldirilgan jumlani toping.

62. ...-badiiy tasvir usullsridan biri bo`lib, insonga xos qobiliyat va xususiyatlarni: so`zlash. his qilish. fikrlash va hokazolarni hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga ko`chirib tasvirlashdan iboratdir. Tushirib qoldirilgan jumlani toping.

63. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'yib tasvirlash usuli qanday nomlanadi?

64. Misralarning oxirida so'zlar yoki bo'g'inlarning ohangdosh bo'lib kelishi nima deb ataladi?

65. Erkin A`zamovning "roman" janriga xos asari haqida ma`lumot bering.

66. "Aytgil, do`stim, nima qildik Vatan uchun?",-deya xitob qilgan shoir kim?

67. Quyidagi baytda qanday san`at qo'llanilgan?

Yuz uza ikki nargising. vah. ne balo qaro dedim

Ko'nglung-u joning olg`uchi ikki qaro balo dedi

68. Anvar Obidjon ijodiyotida 70- yillardan boshlab Sergey Yesenin ta'siri kuchaya boshladi. O'zbek shoiri shakl jihatidan buyuk rus shoiriga ergashdi. Bu ta'rif to'la mos keladigan she'r haqida ma`lumot bering.

69. Anvar Obidjonning qaysi she'rida Erkin Vohidovning "Arslon o'ynatuvchi" she'ridan ilhomlanish, uslubiy yaqinlik va ustoz-shogird an'anasi sezilib turadi?

70. Anvar Obidjonning turmushimizda o'z vaqtida sodir etilgan ijtimoiy adolatsizliklar bejalmay ko'rsatilgan, aldam-qaldam, nopokliklarning milliyat va ruhiyat puchmoqlariga solgan izlari o'ta soddalik bilan ko'rsatilgan asari haqida ma`lumot bering.

71. Anvar Obidjonning aysi asarida avtobiografik ruh yetakchilik qilgan hamda yosh ijodkorning shakllanish jarayonlari o'z aksini topgan?

72. "Ona yer", "Masxaraboz bola". "Yerliklar" she'riy to'plamlari muallifini toping.

73. X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari 1970-yilda qaysi nufuzli mukofotga munosib ko'riladi?

74. X.To'xtaboyevning rus tiliga tarjima qilingan birinchi asari haqida ma`lumot bering.

75. A.S.Pushkin qaysi asarini Shekspir an'analariga tayanib. o'zi uchun dramatik san'atning yangi yo'llarini kashf etgan holda ilk tajriba sifatida yaratgan edi?

76. A.S.Pushkin romantizmining ilk namunasi sifatida baholanadigan doston haqida ma`lumot bering.

77. A.S.Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov", "Kavkaz asiri" nomli asarlari o'zbek tiliga mahorat bilan kim tomonidan tarjima qilingan edi?

78. F.K.Anittining "Hikoya va qissalar"ini, I.Kamyuning "Esselar"ini, Chexovning "Boloxonali uy" hikoyasini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan yozuvchini toping.

79. Nazar Eshonqulning qaysi asarida Bayna momo, Zamon otboqar obrazlari yetakchilik qiladi?

80. A.S.Pushkin yoshlik yillarida Litseydagi xayrlashuv kechasiga bag'ishlangan she'rini aytib qaysi buyuk shoirning e'tibori va e'tirofini qozongan edi?

81. A.S.Pushkin ijodidagi rus jamiyatida uyg'onib borayotgan erksevarlik kayfiyati ta'siri ostida yaratilgan she'rlari haqida ma`lumot bering.

82. "Oybegim mening" asarida keltirilishicha Oybek 1949- yilda bir asar ustida ishlash uchun Kislovodskga jo'naydi. Oradan ko'p o'tmay o'sha mashhur asar dunyoga keladi. Bu qaysi asar edi?

83. "Oybegim mening" asarida keltirilishicha qaysi mashhur adib urushning dastlabki yillarida Yozuvchilar uyushmasida mas`ul kotib lavozimida ishlagan edi?

84. Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" asari chop etilishiga katta hissa qo'shgan va bu asarga bosh muharrirlik qilgan inson kim edi?

85. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi shamol nimaning ramzi edi?

86. Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" kitobida Nazar Eshonqul ijodini F. Kafkaga qiyos etilgan. Buning asosiy sababi nimada edi?

87. Nazar Eshonqulning qaysi hikoyasida bor-yo'qligi ham noma'lum Tursoriya shahri tasviri hikoyaning butun boshli syujetini tashkil qiladi.

88. "O'zbek tili-o`zbek xalqining ma`naviy mulki" degan fikr kimga tegishli?

89. Har bir narsa menga qadrdon.
Qarab qoldingizmi yo'limga
Issiq nonlar uzib tandirdan?
Misralar muallifini toping.

90. Erkin A'zamning "Tanho qayiq" dramasida kim hushtakchi Genjamurodga "Hushtak chalish - shaytonni chaqirish bilan barobar"ligini aytadi?

91. Nuh to'fonini qismat shamoli deb atagan shoir kim?

92. Dili qonga to'lib, ko'zlari - yoshga,
Alp Tegin bir hikmat chegirdi toshga:
"Bizning qayg'umiz yo'q balodan boshqa..."
Bolangga bog'lidir o'ylaring. o'zbek.
Ushbu misralar muallifi kim?

93. Erkin Azamning "Chiroqlar o'chmagan kecha" asari qanday tasvir bilan boshlanadi?

94. "Otoyining tug`ilgan yili" qissa qahramonlarini toping?

95. "Javob" asarining qahramonlarini toping.

96. Aleksandr Sergeyevich Pushkin sherlarini kim o`zbek tiliga o`girgan

97. Anvar Obidjon qalamiga mansub dastlabki birinchi sh'er.

98. Ivan Andreevich Krilovning masallaridagi ilgari surilgan g`oya?

99. Ivan Andreevich Krilovning masali to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

100. Xudoyberdi To'xtaboyevning **"Sariq devni minib"** fantastik romani nechchi qismdan iborat.

YDA imtihonini o'tkazish shakli va talabalar bilimini baholash tartibi:

1. YDA imtihoni umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha savol-topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan test-nazorat shaklida o'tkaziladi.

2. Talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda har bir talabaga 4tadan savol beriladi. Undan 1 tasi "Hozirgi o`zbek adabiy tili" fanidan, 1 tasi "O'zbek adabiyoti" fanidan, 1tasi **"O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi"**fanidan, 1tasi "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanidan bo'ladi. Berilgan har bir to'g'ri javob uchun 1.25 balldan, jami 5 baholik tizimda baholanadi.

YDA imtihoni natijalarini umumiy baholash tartibi:

YDA umumiy baholash		Baholash							
maks	min	A`lo		Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
		maks	min	maks	min	maks	min	maks	min
100	55	100	86	85	71	70	55	54	0

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova M., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
4. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 2009.
5. N.Rahmonov. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1,2-jild. – T.: Fan, 2005, 2007.
6. Vohidov R., Eshonqulov X. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2006.
7. B.Qosimov va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: 2006.
8. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano –standart, 2018.
9. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Sharq, 2006.
10. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'zga tilli guruhlarda) / Monografiya. T., 2021. 327 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Jamolxonov H., Jamolxonova M. Hozirgi o'zbek tili. Metodik qo'llanma. - Toshkent, 2007.
2. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Тошкент, 1995.
4. Saparniyozova M., Ahmedova N. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. – Toshkent, 2010.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002.
6. Tojiyev Y. O'zbek tili morfemikasi. - Toshkent, 1992.
7. Nurmonov A. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 2001.
8. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1987.
9. G'ulomov A. va b. O'zbek tilining morfem lug'ati. T., 1977.
10. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari.-Toshkent: Fan, 2010.
11. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalish tizimi. - Toshkent: Fan, 2007.
12. Qodirov V.A. Mumtoz adabiyot o'qitish muommolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 244 b.

13. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rgatish metodikasi. -T., 2010.
14. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006. 216 b.
15. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.T:O'qituvchi. 2006.
16. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T., 2004.
17. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. - T., Universitet. 2005.
18. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2003.
19. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., Ma'naviyat. 2006.
20. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. –T.; O'zbekiston. 1985.
21. Karimov H.Istiqlol davri o'zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr. 2010.
22. Ahmedjanova. Z. (2016) Durhame: Duke University. Duke Center for Slavic. Eurasian. and East European Studies. 225 p.
23. Azimova. N. (2010) Uzbek: an elementary textbook. Georgetown University Press. 493 p.
24. Бакиева Г.Х., Караева Б.Х., Коршунова Е.Н., Краева И.А., Тешабаева Д.М., Фролова Г.М. Узбекский язык для стран СНГ: Учебник. М.: ИПК МГЛУ "Рема". 2012. 236 с.
25. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: Учебное пособие. М.: Изд. центр "Академия", 2006. 336 с.
26. Eltazarov, J., Donaboyeva, Z. (2013) Reader of the Uzbek language. Tokyo: Tokyo University of Foreign Studies, Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa. 65 p.
27. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс: Пособие для студентов пед. вузов и учителей. М.: АСТ: Астрель. 2008. 238 с.
28. Языкова Н. В. Практикум по методике обучения иностранным языкам. М.: Просвещение, 2012. 240 с.

Internet saytlari

1. http://www.ziyonet.uz/
2. http://www.pedagog.uz/
3. http://library.ziyonet.uz – ZiyoNET ta'lim portali
4. 2. http://elibrary.ru – Научная электронная библиотека eLIBRARY.RU
5. 3. http://www.lib.ua-ru.net/katalog/41.html – Гуманитарная электронная библиотека
6. 4. http://www.portalus.ru/ –Научная онлайн-библиотека Порталус
7. 5. http://www.gumer.info/ – Библиотека Гумер

8. http://studentam.net/content/category/1/2/5/ – Электронная библиотека учебников
9. https://www.youtube.com/watch?v=vCbmWjzGJe4
10. http://hozir.org/qoshma-gapni-oqitish-usullari.html
11. https://www.youtube.com/watch?v=YfDhWMb1gRo
12. https://www.youtube.com/watch?v=ptaLVtZbMAY
13. http://ziyonet.uz/ru
14. https://tilvaadabiyot.uz/
15. https://www.youtube.com/watch?v=cpMF5jGMEvE&t=234s
16. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
17. http://ensiklopediva.uz – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti.
18. http://ziyouz.uz – O'zbek va jahon adabiyoti portal.
19. http://www.infolib.uz – Respublika Axborot kutubxona markazi.
20. http://referatlar.uz – Referatlar, testlar, kitoblar va media ta' lim sayti.
21. http://book.uz – Elektron adabiyotlar kutubxonasi.